



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:
B.Bobojonov

«21» may 2026 y.
№ 381

Yuk tashish transport xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Tashkilotchi/Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Yuk tashish transport xizmatlarini ko'rsatish.
3	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	<p>– O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida“ O'RQ-684-sonli Qonuni;</p> <p>– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 276-sonli qarori;</p> <p>– Bank Boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi.</p>
4	Buyurtmachi manzili	100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 18-A
5	Xizmatlarning batafsil tarkibi	<p><u>Xizmat ko'rsatish joyi:</u> yuklarni qabul qilish va yetkazib berish Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan manzil bo'yicha amalga oshiriladi.</p> <p>➤ Yuklarni ortish, tashish, joylashtirish O'zbekiston bo'ylab amalga oshiriladi;</p> <p><u>Ijrochi ushbu Texnik topshiriqda ko'rsatilgan yuklarni ortish, tashish, joylashtirishda, ularning butligini saqlash kafolati bilan yetkazib berishga majbur, xususan:</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Bankomatlar (ATM, ADM, bankomat shoxobchasi); ➤ Quyosh panellari; ➤ Dizel generatorlari. ➤ Hujjatlar (hujjatlar solingan papkalar, arxiv hujjatlari);

- UPS, stabilizatorlar, konditsionerlar;
- Ofis mebellari, yumshoq mebellar, metall shkaflar, metall stellajlar, gilamlar;
- Kichik hajmdagi server qurilmalari;
- Ofis uskunalari (printer, skaner, kompyuterlar);
- Devonxona (kanselariya) va xo‘jalik mollari.

Izoh: Tashiladigan yuklar buyurtmaga qarab har xil vazn va hajmda bo‘lishi mumkin.

Ijrochining majburiyatlari:

➤ Ijrochi yuklarni bir manzildan yuklab olish va ikkinchi manzilga Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan buyurtmaga muvofiq joylashtirib chiqadi;

➤ Ijrochi xizmatlarni boshlashdan oldin yuklarni tekshirishi, kamchilik, nuqsonlar aniqlansa, Buyurtmachini xabardor qilishi lozim (zarur hollarda tegishli dalolatnoma rasmiylashtirish mumkin);

➤ Ijrochi tashish paytida kuchli silkinish va zarbalardan himoya qilish choralarini ko‘rishi lozim;

➤ Yuk tashish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan **eng qisqa va xavfsiz yo‘nalish** bo‘yicha amalga oshirilishi shart;

➤ Ijrochi ushbu Texnik topshiriqda ko‘rsatilgan qadoqlash materiallarini taqdim etadi va yukni tashish vaqtida shikastlanishdan himoya qilish uchun **qadoqlashga javobgar** hisoblanadi;

➤ Ijrochi xizmat ko‘rsatishning butun davri davomida shaxsan va telefon orqali **24/7** rejimida bog‘lanish mumkin bo‘lgan bitta **mas’ul shaxsni** (ushbu xizmatlar bo‘yicha koordinatorni) taqdim etadi;

➤ Ijrochi xizmat ko‘rsatishning butun davri davomida yuk tashish uchun barcha zaruriy **xodimlarni (haydovchi va kamida 2 nafar yuk tashuvchi)** va (bankomatlarni yuklashda **yuklagich**) **transportni** taqdim etadi. Tashish uchun taqdim etiladigan transport texnik jihatdan **soz holatda**, yuk tashish uchun maksimal darajada moslashtirilgan bo‘lishi, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar, xususan, **YHXBB** tomonidan yuk avtotransportiga qo‘yiladigan talablarga javob berishi lozim;

➤ Yuk tashish xodimlari (haydovchi va kamida 2 nafar yuk tashuvchisi)ning **sog‘ligiga ijrochi javobgar** hisoblanadi.

➤ Barcha xodimlar **maxsus kiyimda (forma)** bo‘lishi, yuklarni **ortish va tushirishga** tayyor turishi va texnika xavfsizligi talablariga amal qilishi lozim;

➤ Ijrochi xizmat ko‘rsatishning batafsil **grafigini** (harakatlanish yo‘nalishini) ishlab chiqadi va Buyurtmachi bilan kelishadi (bunda dam olish/bayram kunlari hamda tungi vaqtdagi ishlar hisobga olinadi);

➤ Ijrochi yukning bir manzildan ikkinchi manzilga xavfsiz

ortilishi va **tashilishi** uchun javobgar hisoblanadi;

➤ Ijrochi Buyurtmachining mol-mulki, shuningdek, uchinchi shaxslarning mulki butunligi uchun javobgardir. Agar Ijrochining harakati yoki harakatsizligi natijasida mulkka zarar yetsa, Ijrochi ushbu zararni qoplash majburiyatini oladi;

➤ Ijrochi yukni **ortish, tushirish** hamda uni tegishli qavatga (xonaga) olib kirish uchun javobgar hisoblanadi;

➤ Ijrochi yukni **qadoqlash va qadoqdan chiqarish** uchun javobgardir. Buyurtmachi Ijrochidan yukning bir qismini qadoqlangan holatda qoldirishni talab qilish huquqiga ega. Ushbu ish tomonlar o'rtasida **oldindan kelishib olinadi**;

➤ Ijrochi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va kechikishlar haqida, shuningdek, ishlar kechikishi xavfini kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risida Buyurtmachini **o'z vaqtida xabardor qilish** uchun javobgardir;

➤ Ijrochi Buyurtmachiga yuk tashish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish uchun **monitoring tizimiga** (login/parol yoki monitoring havolasi orqali) **kirish imkoniyatini taqdim etishi** shart;

➤ Ijrochi har bir reys yakunida bosib o'tilgan masofani tasdiqlovchi **monitoring tizimi hisobotini** (screenshot yoki elektron ko'chirmaning PDF shakli) taqdim etishi zarur;

➤ Tashish jarayonida yuzaga kelgan yukning yo'qolishi, kamomadi va shikastlanishi uchun to'liq javobgarlikni zimmasiga oladi, agar yukning yo'qolishi, kamomadi yoki shikastlanishi "Ijrochi" oldini ololmagan va bartaraf etishi unga bog'liq bo'lmagan holatlar (**fors-major**) tufayli yuz berganini isbotlay olmasa.

***Izoh:** Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodim va transport vositalari shikastlanishiga Buyurtmachi javobgar hisoblanmaydi. (Bunda Qonunchilikda belgilangan holatlar mustasno).*

GPS qurilmasi ishlamay qolgan taqdirda, masofa Google Maps/Yandex Maps orqali tasdiqlangan eng qisqa yo'l bo'yicha hisoblanadi.

Transport vositalariga qo'yiladigan talablar:

➤ Avtotransport vositasining yuk ko'tarish quvvati **1 000 kg** dan **40 000 kg** gacha bo'lishi;

➤ Avtotransport vositasi **GPS** monitoring tizimi qurilmalari bilan jihozlangan yoki foydalanuvchining joylashuvini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega **Mobil ilova** bilan ta'minlangan bo'lishi;

➤ Avtotransport vositasi texnik jihatdan **soz holatda** bo'lishi va oldindan **texnik ko'rikdan** o'tgan bo'lishi;

➤ Yuk ko'tarish quvvati, gabaritlari va ichki o'lchamlari tashilayotgan yukning **vazni hamda hajmiga mos kelishi**;

➤ Kuzov turi: tentli yoki butunlay metall korpusli

(selnomatall) bo'lishi;

➤ **Katta vaznli va hajmli yuklar gidrobortli** (gidroliftli) yoki shunga o'xshash (pnevmatik podveskali) qurilmalar yoki **monipulyator orqali ko'tarilishi, yuklanishi, joylashtirilishi, o'rnatilishi;**

➤ Avtotransport vositasi foydalanishga yaroqli, Buyurtmachi ehtiyojlarini qondiradigan, **sanitariya normalari** va **yong'in xavfsizligi** talablariga javob beradigan holatda taqdim etiladi. Ijrochi Buyurtmachining hududida bo'lganda, transport hamda yuk ortish-tushirish ishlarini bajarishda **mehnat muhofazasi** talablariga rioya qilishi, tashish paytida yuklarning **mahkamlanishi va butunligini ta'minlashi;**

➤ Maxsus o'lchamdagi (gabaritdan tashqari) yuklar uchun **ruxsatnomalar** olishi;

➤ Ijrochi ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan bog'liq avtotransportda yuk tashish masalalari bo'yicha Buyurtmachiga bepul maslahatlar berishi hamda tovar-moddiy boyliklarni ortish, tushirish va tashish paytidagi **ehtiyot choralari** haqida ogohlantirishi lozim.

Xizmat ko'rsatish davrida Ijrochi o'z hisobidan quyidagilarni ta'minlaydi:

- joriy xizmat ko'rsatish;
- transport, haydovchi va kamida 2 nafar yuk tashuvchi bilan ta'minlash;
- maxsus ruxsatnomalarni olish;
- yonilg'i-moylash materiallari bilan to'ldirish;
- avtotransport vositalarini yuvish, ta'mirlash;
- ularning saqlanishi, davlat texnik ko'rigidan o'tkazish;
- avtotransport vositalarini sug'urtalash to'lovlarini amalga oshirish;
- transport vositalarini boshqarish jarayonida aniqlangan jarimalarni to'lash;
- yo'l-transport hodisalari oqibatlarini tahlil qilish va bartaraf etishda ishtirok etish, shuningdek haydovchilar va yuk tashuvchilarning xizmat safari xarajatlari (zarurat tug'ilganda).

Qadoqlash materiallariga qo'yiladigan talablar:

- Uch qatlamli havo-pufakchali plyonka o'rash;
- Ofis uskunolari (printer, skaner) uchun mo'ljallangan, besh qatlamli gofrokartondan tayyorlangan yuqori sig'imli qutilar;
- Streych-plyonka, qalinligi 20 mikrondan kam bo'lmagan;
- Qadoqlash skotchi, o'lchami 55mm x 66m;
- Uchinchi shaxslarning mol-mulkiga shikast yetkazishning oldini olish uchun himoya materiali bilan qoplangan, rezinalangan g'ildirakli aravachalardan foydalanish.

		<p align="center"><u>Yuk tashish transport xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha buyurtma rasmiylashtirish:</u></p> <ul style="list-style-type: none"> - Xizmat ko'rsatishning boshlanish va tugash muddatlari haqida Buyurtmachi Ijrochini oldindan xabardor qiladi; - Yuk ortiladigan va yetkaziladigan joy, sanasi, vaqti, soni, hajmi, og'irligi va yuk nomi; - Buyurtmaga ilova qilingan boshqa hujjatlar va ma'lumotlar. <p><i>Izoh: Buyurtmalar yozma, elektron (pochta, messenjerlar), uyali aloqa vositalari orqali taqdim etiladi. Buyurtma xizmatlarni boshlash vaqtidan kamida 3 kun oldin buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi.</i></p> <p><i>Ijrochi tomonidan buyurtmalar har kuni (24/7) qabul qilinadi.</i></p> <p align="center"><u>Buyurtmachining majburiyatlari:</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ Xizmatlarni bajarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuklarni tashish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 213-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirilishi lozim; ❖ Buyurtmalarni texnik topshiriqda belgilangan muddatlarda taqdim etishi lozim; ❖ Yuklarni Ijrochiga but holda taqdim etishi lozim; ❖ Bank ofislariga kirish yo'llarini ta'minlashi lozim; ❖ Tegishli dalolatnomalarni rasmiylashtirish; ❖ Xizmat haqini to'lash.
6	To'lovni amalga oshirish	<p>Xizmatlar uchun to'lov - Tashilgan yukning vazni, hajmi hamda bosib o'tilgan masofa bo'yicha belgilangan tariflar yig'indisi asosida hisoblab chiqiladi va amalga oshiriladi. Tariflar texnik topshiriqning 1-ilovasida belgilangan.</p> <p>Bajarilgan ishlar va amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotnoma hisob-faktura (dalolatnoma) buyurtmachi va Ijrochi tomonidan imzolanganidan so'ng, 5 (besh) bank ish kuni ichida bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun to'lov amalga oshiriladi.</p> <p><i>Izoh: Marshrutdan asossiz chetga chiqish (shaxsiy maqsadlar yoki boshqa yuklarni olish uchun) natijasida hosil bo'lgan qo'shimcha kilometrlar Buyurtmachi tomonidan to'lanmaydi.</i></p>
7	Shartnomani amal qilish muddati	<p>Tomonlar o'rtasida imzolangan shartnoma summasi to'liq foydalanilgan kunga qadar.</p>

8	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to'liq bajarilganidan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.
9	G'olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.
10	Bog'lanish uchun aloqa telefonlari	+998781509339
11	Baholash mezonlari	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari bo'yicha baholanadi.

Yuk tashish transport xizmatlarini ko'rsatish tariflari

№	Yuk vazni		Yuk hajmi		Masofa		Yuk ko'targichlardan foydalanish	
	O'lchov birligi (kg)	Xizmat narxi	O'lchov birligi (m3)	Xizmat narxi	O'lchov birligi (km)	Xizmat narxi	O'lchov birligi (kg)	Xizmat narxi
	A		B		C		D	
1	1 - 100 kg		1 - 10 m3		1 - 10 km		500 - 2000 kg	
2	101 - 200 kg		11 - 30 m3		1 - 30 km		2001 - 5000 kg	
3	201 - 300 kg		31 - 50 m3		1 - 60 km		5001 - 10000 kg	
4	301 - 400 kg		51 - 70 m3		1 - 90 km		10001 kgdan yuqori	
5	401 - 500 kg		71 - 100 m3		1 - 120 km		-	
6	501 - 600 kg		100 m3dan yuqori		1 - 150 km		-	
7	601 - 700 kg		-		1 - 200 km		-	
8	701 - 800 kg		-		1 - 300 km		-	
9	801 - 900 kg		-		1 - 500 km		-	
10	901 - 1000 kg		-		1 - 700 km		-	
11	1001 - 1500 kg		-		1 - 1000 km		-	
12	1501 - 2000 kg		-		1000 kmdan yuqori		-	
13	2001 - 4000 kg		-		-		-	
14	4001 - 5000 kg		-		-		-	
15	5000 kgdan yuqori		-		-		-	

Izoh: Xizmatlar uchun to'lov - Tashilgan yukning vazni, hajmi, bosib o'tilgan masofa hamda qo'llanilgan monopulyator xarajatlari bo'yicha belgilangan tariflarning jami yig'indisiga asosan amalga oshiriladi ($Narx=A+B+C+D$). Misol uchun: $2 A + 1 B + 2 C + 1 D =$ Jami xizmat narxi.

kelishuvchilar: Закиров Адхам , Sh.Botirov, F.Mustafojev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=jF31kP78&id=e9f6717e-192d-4281-9e13-e6be3b6daa8c>